

**TOSHKENT VILOYATI
TASHQI SAVDO AYLANMASI***2025- yil yanvar-mart oylari uchun dastlabki ma'lumot*

- I. Tashqi savdo aylanmasi
- II. Eksport hajmi
- III. Import hajmi
- IV. Metama'lumotlar
- V. Aloqador boshqa havolalar

I. TASHQI SAVDO AYLANMASI

2025- yil yanvar-mart oylarida Toshkent viloyatining tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 1268,7 mln AQSH dollariga yetdi va 2024- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 85,2 mln AQSH dollariga yoki 7,2 % ga ko'paydi.

Tashqi savdo aylanmasi (mln AQSH dollari)

TSAda eksport hajmi 415,6 mln AQSH dollariga (2024- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 2,3 % ga ko'paydi) va import hajmi 853,1 mln AQSH dollariga (9,7 % ga ko'paydi) yetdi. Hisobot davrida – 437,5 mln AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.

**Toshkent viloyatining yirik hamkor davlatlar
bilan tashqi savdo aylanmasi dinamikasi (mln AQSH dollari)**

Davlatlar	2024- y.	2025- y.
Xitoy Xalq Respublikasi	328,8	382,3
Rossiya Federatsiyasi	311,4	339,3
Qozog'iston	143,4	144,9
Turkiya	93,3	77,8
Afg'oniston	16,2	25,3
Koreya Respublikasi	7,3	9,7
Germaniya	26,7	37,2
Hindiston	8,6	16,5
Fransiya	5,3	2,5
Qirg'iz Respublikasi	11,5	11,7
BAA	0,9	3,1
AQSH	4,0	3,6
Belorussiya	30,7	26,5
Turkmaniston	6,2	7,7
Tojikiston	16,3	33,8
Pokiston	3,9	5,8
Litva	2,7	2,7
Italiya	38,0	14,2
Eron	9,5	8,3
Braziliya	14,8	21,6


Toshkent viloyati jahonning 70 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Xitoy Xalq Respublikasida (30,1 %), Rossiya Federatsiyasida (26,7 %), Qozog'istonda (11,4 %), Turkiyada (6,1 %) va Afg'onistonda (2,0 %) qayd etilgan.

II. TOSHKENT VILOYATINING EKSPORTI TARKIBI

Tarkibi	Mln AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2024- y.	2025- y.	2024- y.	2025- y.	2024- y.	2025- y.
Jami eksport	406,2	415,6	90,7	102,3	100,0	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	41,6	53,8	89,5	129,2	10,4	12,8
Ichimliklar va tamaki	1,4	2,1	96,3	148,5	0,3	0,5
Nooziq-ovqat xom-ashyosi, yoqilg'idan tashqari	16,2	12,1	164,6	75,1	2,2	2,9
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	3,6	1,7	3,8 m.	46,4	0,2	0,4
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	2,4	4,0	-	165,3	-	1,0
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	23,3	24,8	118,7	106,8	4,4	6,0
Sanoat tovarlari	239,8	239,3	80,2	99,8	66,7	57,6
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	14,8	18,9	153,0	128,1	2,2	4,6
Turli xil tayyor buyumlar	62,2	54,4	103,4	87,4	13,4	13,1
Xizmatlar	0,9	4,5	123,9	5,1 m.	0,2	1,1

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 98,1 % ni tashkil etib, asosiy ulush sanoat tovarlari (57,6 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (12,9 %), kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (6,0 %) va turli xil tayyor buyumlar (13,1 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Toshkent viloyatining yirik eksportyor hamkor davlatlari
(mln AQSH dollari)



2025- yil yanvar-mart oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz: Rossiya Federatsiyasi (33,0 %), Xitoy Xalq Respublikasi (26,5%), Turkiya (9,8 %), Afg'oniston (5,9 %), Qozog'iston (5,8 %), Tojikiston (2,6 %) va Belorussiya (1,0 %) kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 84,6 % ni tashkil etdi.

2025- yil yanvar-mart oylarida 21,3 mln. AQSH dollari miqdorida meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2024- yilning mos davriga nisbatan 8,0 % ga ko'paydi.


Meva va sabzavotlar eksporti

2.2- jadval

	Miqdori, tonnada	Ming AQSH dollar	Hajmiga nisbatan, o'sish sur'ati
Jami	27 153,2	21 323,1	108,0
Mevalar va rezavorlar	2 240,1	4 697,1	144,6
Uzum	2 672,2	2 693,6	181,2
shu jumladan: qurutilgan	975,1	1 693,2	155,7
Sabzavotlar	21 879,2	13 440,6	91,7
shu jumladan: qurutilgan	1 092,8	2 281,0	105,0
Veryong'oqlar	361,7	491,8	138,9

2025- yil yanvar-mart oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 4,7 mln AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2024- yilning mos davriga nisbatan 44,6 % ga ko'paydi va jami eksportdagi ulushi 22,0 % ni tashkil etdi.

Xizmatlar eksporti tarkibi (ming AQSH doll.)



Xizmatlar eksporti hajmi 4 519,5 ming AQSH dollarini tashkil qildi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi safarlar (39,2 %), axborot xizmati (22,5 %), telekommunikatsiya, kompyuter va axborot (14,6 %) va boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (23,7 %) hissasiga to'g'ri kelgan.

III. TOSHKENT VILOYATINING IMPORTI

2025- yilning yanvar-mart oylarida import hajmi 853,1 mln AQSH dollariga yetdi va 2024- yilning mos davriga nisbatan 9,7 % ga ko'paydi. Import tarkibida eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalar (28,1 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (18,9 %) hamda sanoat mahsulotlari (15,7 %) hisobiga to'g'ri keldi.

Toshkent viloyatining importi tarkibi


3.1- jadval

XSST tarkibi	Mln AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan. % da	
	2024- y.	2025- y.	2024- y.	2025- y.	2024- y.	2025- y.
Jami import	777,3	853,1	82,8	109,7	100,0	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	162,8	161,5	96,1	99,2	20,9	18,9
Ichimliklar va tamaki	0,9	1,0	80,7	111,7	0,1	0,1
Nooziq-ovqat xom-ashyosi, yoqilg'idan tashqari	50,9	83,3	30,5	163,8	6,5	9,8

XSST tarkibi	Mln AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan. % da	
	2024- y.	2025- y.	2024- y.	2025- y.	2024- y.	2025- y.
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	80,6	84,9	88,3	105,3	10,4	10,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	20,1	32,5	87,6	161,9	2,6	3,8
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	75,4	98,2	86,3	130,3	9,7	11,5
Sanoat tovarlari	101,8	134,1	83,6	131,6	13,1	15,7
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	245,6	239,7	95,2	97,6	31,6	28,1
Turli xil tayyor buyumlar	14,4	15,9	79,3	110,4	1,9	1,9
Boshqa tovarlar	23,5	0,8	37,0 m	3,4	3,0	0,1
Xizmatlar	1,3	1,2	102,3	93,0	0,2	0,1

Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2025- yilning yanvar-mart oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 75,7 mln AQSH dollariga ko'paydi va 853,1 mln AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 1,2 mln AQSH dollariga yetdi.


Toshkent viloyatining yirik importyor hamkor davlatlari (mln AQSH dollari)



2025- yil yanvar-mart oylarida Toshkent viloyati 61 ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yirik hamkor davlatlar: Xitoy Xalq Respublikasi (31,9 %), Rossiya Federatsiyasi (23,7 %), Qozog'iston (14,2 %), Turkiya (4,3 %), Germaniya (4,2 %), Tojikiston (2,7 %) va Belorussiya (2,6 %) jami importning 83,6 % ni tashkil etdi.

2025- yilning yanvar-mart oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi 1 231,1 ming AQSH dollarini yoki jami import hajmining 0,1 % ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 0,7 % ga kamaydi.

Xizmatlar importi tarkibi (ming AQSH dollarida)



Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi boshqa transport xizmatlari (62,9 %), safarlar (turizm xizmatlari) (19,0 %), boshqa sohadagi kasbiy va maslahat xizmatlari (13,0 %) va boshqa xizmatlar (5,1 %) ga tegishli bo'ldi.

IV. METAMA'LUMOTLAR

XSST* - Tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (TIF TN) bilan birgalikda, BMTning Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarini XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

Tashqi savdo statistikasi, tovarlar va xizmatlar tashqi savdosi asosida shakllantiriladi: tovarlar tashqi savdosi statistikasini shakllantirishda dastlabki ma'lumotlar bo'lib, Bojxona qo'mitasining bojxona yuk deklaratsiyasining ma'lumotlari hamda Milliy statistika qo'mitasining rezedentdan norezedentga o'tuvchi, davlat chegarasini kesib o'tmaydigan va bojxona deklaratsiyasida hisobga olinmaydigan tovarlarni statistik kuzatuvlari hisoblanadi; tashqi savdo xizmatlar statistikasini shakllantirish statistika kuzatuvlari asosida amalga oshiriladi.

Chop etishga masul: Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi	Bo'lim boshlig'i: J.Rafikov Tel: +998712034500 (4540)	Ijrochi: M.Mirzokirov Tel: +998712034500 (4541)	Manzil: Toshkent shahar Mirobod tumani Yangi Qo'ylig ko'chasi, 2-uy
--	--	---	--